Axmedova Sanobar Ikrom qizi, Davlatov Ahmadjon Anvarbek o'g'li	



YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QURILISH SANOATINING IQTISODIY HOLATI



Axmedova Sanobar Ikrom qizi

Fan va texnologiyalar universiteti,
"Iqtisodiyot" kafedrası dotsent v.b.

E-mail: sanobarahmedova839@gmail.com;

ORCID: 0009-0005-5594-8020



Davlatov Ahmadjon Anvarbek o'g'li

Fan va texnologiyalar universiteti magistranti.

E-mail: ahmadjondavlatov311@gmail.com;

phone +998942063622

Annotatsiya. Maqolada yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida qurilish sanoatining iqtisodiy holati, barqaror rivojlanish talablari hamda ekologik samaradorlikni oshirish masalalari tahlil qilingan. Qurilish sohasi milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri sifatida tabiiy resurslar iste'moli, energiya sarfi va chiqindilar hajmi bo'yicha muhim ulushga ega bo'lib, yashil iqtisodiyot strategiyasining samarali amalga oshirilishi ko'p jihatdan ushbu tarmoqni modernizatsiya qilish darajasiga bog'liq. Tadqiqotda qurilish materiallari ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlar, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, yashil investitsiyalar salohiyatini kengaytirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda tarmoqni rivojlantirish istiqbollari yoritilgan. Olingan natijalar qurilish sanoatini ekologik tamoyillar asosida barqaror rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, qurilish materiallari, ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish, uy-joy qurilishi, sanoat obyektlari, infratuzilma binolari, yashil standartlar, tabiiy resurslar iste'moli, energiya samaradorligi, chiqindilar.

Abstract. The article analyzes the economic condition of the construction industry, the requirements of sustainable development, and approaches to improving environmental efficiency in the context of the transition to a green economy. As one of the leading sectors of the national economy, the construction industry accounts for a significant share of natural resource consumption, energy use, and waste generation, and the effectiveness of the green economy strategy largely depends on the modernization level of this sector. The study examines structural changes in building materials production, the implementation of energy-efficient technologies, the expansion of green investment potential, government support mechanisms, and future development prospects. The results are enriched with scientific and practical recommendations aimed at ensuring the sustainable development of the construction industry based on environmental principles.

Key words: green economy, building materials, environmental safety, sustainable development, housing construction, industrial facilities, infrastructure buildings, green standards, natural resource consumption, energy efficiency, waste.



Аннотация. В статье проанализированы экономическое состояние строительной отрасли, требования устойчивого развития и направления повышения экологической эффективности в условиях перехода к зеленой экономике. Строительная отрасль, являясь одним из ведущих секторов национальной экономики, занимает значительную долю в потреблении природных ресурсов, энергоресурсов и образовании отходов, а эффективность реализации стратегии зеленой экономики во многом определяется уровнем модернизации данной отрасли. В исследовании рассмотрены структурные изменения в производстве строительных материалов, внедрение энергоэффективных технологий, расширение потенциала зеленых инвестиций, механизмы государственной поддержки и перспективы развития отрасли. Полученные результаты дополнены научно-практическими рекомендациями, направленными на устойчивое развитие строительной отрасли на основе экологических принципов.

Ключевые слова: зеленая экономика, строительные материалы, экологическая безопасность, устойчивое развитие, жилищное строительство, промышленные объекты, инфраструктурные сооружения, зеленые стандарты, потребление природных ресурсов, энергоэффективность, отходы.

KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda global iqtisodiy rivojlanishning barqaror modelini shakllantirishda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi keng qo'llanilmoqda. Ushbu model iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan bir qatorda ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Qurilish sanoati esa ekologik yuklamaning muhim qismini shakllantiruvchi yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanib, tabiiy resurslar iste'moli, energiya sarfi va chiqindilar hosil bo'lishi ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori ulushga ega. Shu sababli mazkur tarmoqni ekologik tamoyillar asosida modernizatsiya qilish yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda energiya tejankor texnologiyalar asosida uy-joylar, sanoat obyektlari va infratuzilma binolarini qurish hajmi izchil ortib bormoqda hamda "yashil standartlar" asosida amalga oshirilayotgan loyihalar ko'lamiga kengaymoqda. Shu bilan birga, "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi – 2030" doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik toza qurilish materiallaridan foydalanishni kengaytirish va investitsiya muhitini yanada yaxshilashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tashabbuslar qurilish sanoatining barqaror va innovatsion rivojlanishini ta'minlash, uning iqtisodiy samaradorligi va ekologik barqarorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, qurilish tarmog'ining iqtisodiy holatini chuqur tahlil qilish, uning yashil iqtisodiyot sharoitidagi transformatsiya jarayonidagi o'rni va rivojlanish istiqbollari aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy nazariyalarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u iqtisodiy tizimni o'zi faoliyat yuritayotgan ekologik tizim bilan uzviy bog'liq holda rivojlanishini asoslab beradi. Ushbu yondashuvga ko'ra, iqtisodiyot alohida mustaqil tizim sifatida emas, balki tabiiy muhitning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bu borada mashhur biolog va ilmiy tadqiqotchi Lin Margulis o'z ilmiy ishlari orqali tabiiy tizimlar va inson faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni asoslab bergan hamda iqtisodiy faoliyatning ekologik muvozanat bilan uyg'un holda rivojlanishi zarurligini ta'kidlagan.

Ilmiy adabiyotlarda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ko'plab nazariy va amaliy yondashuvlar bilan boyitilgan bo'lib, u ekologiya, barqaror rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot masalalarini o'zaro uyg'unlikda ko'rib chiqadi. Ushbu konsepsiya tarafdorlari, jumladan ekologik iqtisodiyot vakillari, atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy rivojlanish o'rtasida muvozanatni ta'minlash zarurligini asoslab beradilar. Shuningdek, yashil iqtisodiyot g'oyalari ekologik harakatlar, barqaror rivojlanish konsepsiyasi va global ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy qarashlar bilan ham uzviy bog'liq holda rivojlanib bormoqda.

Yashil iqtisodiyotning nazariy va metodologik asoslari mahalliy olimlar tomonidan ham keng o'rganilgan. Xususan, J. Jamolovning "Yashil iqtisodiyot" nomli darsligida yashil iqtisodiyotning mazmun-mohiyati, uning asosiy tamoyillari, iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi ahamiyati hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi roli atroflicha yoritilgan. Muallif yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali amalga oshirilishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Umuman olganda, yashil iqtisodiyot — bu atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish, tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanish hamda iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga qaratilgan barqaror rivojlanish modelidir. Ushbu modelning asosiy maqsadi ekologik xavflarni kamaytirish, ekotizimlar barqarorligini saqlash va jamiyatning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashdan iborat.



O'zbekiston Respublikasida ham yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida bir qator muhim strategik hujjatlar qabul qilingan. Jumladan:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori¹ iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini kengaytirish hamda ekologik barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan muhim dasturiy hujjat hisoblanadi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni² doirasida iqtisodiyot tarmoqlariga zamonaviy yashil texnologiyalarni keng joriy etish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, suv resurslarini tejash hamda atrof-muhit muhofazasini kuchaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan.

3. Yashil iqtisodiyot platformasi³ mamlakatda issiqxona gazlari emissiyasini monitoring qilish, ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda yashil investitsiyalarni rag'batlantirishda muhim institutsional mexanizm sifatida faoliyat yuritmoqda.

Shu tariqa, ilmiy adabiyotlar va amaliy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy, ekologik barqaror va innovatsion modelini shakllantirishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, qurilish sanoatini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

– Resurs samaradorligi: Tabiiy resurslardan oqilona va tejamkor foydalanish hamda chiqindilar hajmini minimal darajaga kamaytirishga qaratilgan yondashuv.

– Past uglerodli rivojlanish: Atmosferaga chiqariladigan issiqxona gazlari hajmini qisqartirish, shuningdek, quyosh va shamol kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash.

– Ijtimoiy inklyuzivlik: Jamiyatning barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratish, aholi farovonligini oshirish va barqaror ijtimoiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash.

– Tabiiy kapitalni asrash: Biologik xilma-xillikni muhofaza qilish, tabiiy ekotizimlar barqarorligini ta'minlash va ularning iqtisodiy hamda ekologik ahamiyatini mustahkamlash.

– Energetika: Quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etish orqali energiya ta'minoti samaradorligini oshirish va energiya resurslaridan foydalanishning zamonaviy va barqaror tizimini rivojlantirish.

– Qishloq xo'jaligi: Suvni tejaydigan innovatsion texnologiyalarni, jumladan tomchilatib sug'orish tizimini keng joriy etish orqali yer unumdorligini saqlash va qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish.

– Sanoat: Ekologik xavfsiz va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, resurslardan samarali foydalanishga asoslangan aylanma (tsirkulyar) iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirish.

Yashil iqtisodiyot va qurilish sanoati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud bo'lib, yashil iqtisodiyotning samarali shakllanishida qurilish tarmog'i muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, global miqyosda qurilish sohasi:

- barcha iste'mol qilinadigan tabiiy resurslarning taxminan 40 foizini,
- umumiy energiya sarfining 36 foizini,
- atmosferaga chiqariladigan karbon chiqindilarining 37 foizini,
- umumiy chiqindilar hajmining qariyb 30 foizini tashkil etadi.

Mazkur ko'rsatkichlar qurilish sanoatining ekologik va iqtisodiy jihatdan muhim tarmoq ekanini hamda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishda uning alohida o'rin tutishini tasdiqlaydi.

O'zbekiston misolida ham qurilish sohasi milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Jumladan, 2023-yil yakunlariga ko'ra:

- qurilish tarmog'ining YalMdagi ulushi 7,4 foizni tashkil etdi;
- iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalarning 28–30 foizi aynan qurilish sohasiga to'g'ri keldi;
- uy-joy qurilishida energiya samarador qurilish materiallari ulushi 15–17 foiz darajasida qayd etildi.

Mazkur ko'rsatkichlar mamlakatda yashil qurilish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Qurilish sanoatining iqtisodiy holati va rivojlanish tendensiyalari tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi besh yil davomida O'zbekistonda mazkur tarmoq barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Xususan, statistik ma'lumotlar asosida quyidagi ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda:

1. 2021–2023-yillarda yashil qurilish texnologiyalariga qiziqish sezilarli darajada ortdi;

1 <https://lex.uz/docs/-4539502>

2 <https://lex.uz/docs/-6600413>

3 <https://green.imv.uz/uz/>



2. Pandemiya davrida qurilish sohasining o'sish sur'atlari barqaror tiklandi;
3. Innovatsion va energiya samarador qurilish materiallari ulushi bosqichma-bosqich oshib bormoqda va bu tarmoqning barqaror rivojlanish istiqbollari kengayib borayotganini ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish materiallari bozorida ham so'nggi yillarda sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, g'isht va sement ishlab chiqarish hajmi 2019–2023-yillar davomida 24 foizga, gazobeton ishlab chiqarish esa 35 foizga oshgan. Shu bilan birga, past karbonli sementning bozordagi ulushi 6–7 foiz darajasida shakllanib, ushbu yo'nalishda keng rivojlanish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatmoqda. Yashil iqtisodiyot tamoyillariga muvofiq, qurilish jarayonida ekologik xavfsiz, energiya samarador va uzoq muddat xizmat qiluvchi qurilish materiallaridan foydalanish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, energiya samarador texnologiyalarni joriy etish ko'rsatkichlari ham izchil oshib bormoqda. Xususan, 2024-yil holatiga ko'ra:

- yuqori issiqlik izolatsiyasiga ega panellar ulushi — 22 foizni,
- energiya tejamkor oynalar ulushi — 27 foizni,
- quyosh panelli tom tizimlaridan foydalanish darajasi — 9 foizni tashkil etdi.

Mazkur ko'rsatkichlar har yili o'rtacha 3–5 foizga oshib borayotgani qurilish sanoatida energiya samarador texnologiyalarni joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Qurilish chiqindilarini qayta ishlash tizimini rivojlantirish ham mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar resurslardan samarali foydalanish, ekologik yuklamani kamaytirish hamda qurilish sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. 2024-yil yakunlari bo'yicha mavjud nazariy va tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, qurilish chiqindilarini qayta ishlash ko'rsatkichlarida ham ijobiy o'sish tendensiyalari kuzatilmoqda.

1-jadval. O'zbekistonda qurilish chiqindilari hajmi va qayta ishlash darajasi ko'rsatkichlari (2024-yil)⁴


hosil bo'ladigan qurilish chiqindilari hajmi	5,2 mln tonna
qayta ishlash darajasi	7%
poligonga tashlanadigan chiqindilar	93%

Dunyo amaliyoti tajribasiga ko'ra, qurilish chiqindilarini qayta ishlash darajasi o'rtacha 50–70 foiz atrofida shakllangan bo'lib, ushbu yo'nalishda O'zbekistonda ham qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish uchun muhim imkoniyatlar mavjud. Bu esa qurilish sanoatini ekologik barqaror rivojlantirish va resurslardan samarali foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yashil investitsiyalar salohiyati nuqtai nazaridan ham mamlakatda muhim ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha mo'ljallangan yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida ekologik xavfsiz va energiya samarador qurilish loyihalarini amalga oshirish uchun salmoqli moliyaviy resurslar safarbar etilishi nazarda tutilgan. Xususan, 2020–2023-yillar davomida qurilish tarmog'iga yo'naltirilgan investitsiyalar tarkibi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- umumiy investitsiyalar hajmi — 8,4 mlrd AQSH dollari;
- shundan yashil qurilish loyihalar ulushi — 1,1 mlrd AQSH dollari (13 foiz);
- xalqaro moliyaviy institutlar ishtiroki — 28 foiz;
- davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilgan loyihalar ulushi — 19 foiz.

Mazkur ko'rsatkichlar mamlakatda yashil qurilish texnologiyalarini rivojlantirish, ekologik xavfsiz infratuzilmani shakllantirish hamda qurilish sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli imkoniyatlar mavjudligini tasdiqlaydi (1-rasm).



1-rasm. Yashil biznes mahsulotlari, xizmatlari va mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj tarkibi⁵

Ushbu rasm O'zbekistonda yashil iqtisodiyot yo'nalishida shakllanayotgan joriy ehtiyojlar va ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini aks ettirib, bir qator muhim sohalar bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni taqdim etadi. Infografika natijalari yashil biznes mahsulotlari, xizmatlari hamda mutaxassis kadrlarga bo'lgan talabning izchil ortib borayotganini ko'rsatadi.

Yashil biznes mahsulotlariga bo'lgan talab. Infografika ma'lumotlariga ko'ra, tabiiy materiallardan tayyorlangan ekologik xavfsiz mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoj turli yo'nalishlar bo'yicha shakllangan. Xususan, atrof-muhitga minimal ta'sir ko'rsatadigan mahsulotlar eng yuqori ulushni egallab, 34,0 foizni tashkil etadi. Shuningdek, yashil texnologiyalar asosidagi mahsulotlar ulushi 16,2 foiz, tabiiy oziq-ovqat mahsulotlari 15,0 foiz, to'qimachilik mahsulotlari 13,7 foiz hamda tabiiy materiallardan tayyorlangan boshqa mahsulotlar 10,8 foiz darajasida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkichlar ekologik xavfsiz mahsulotlarga bo'lgan talabning izchil ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Yashil xizmatlarga bo'lgan talab. Xizmat ko'rsatish sohasida ham yashil yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, hududlarni obodonlashtirish xizmatlari 28,9 foiz bilan yetakchi o'rinni egallagan. Bundan tashqari, chiqindilarni qayta ishlash xizmatlari 20,6 foiz, yashil transport infratuzilmasi 20,0 foiz, rekreatsiya xizmatlari 15,8 foiz hamda boshqa yo'nalishlar 14,7 foiz ulushni tashkil etadi. Mazkur natijalar yashil xizmatlar sohasining iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

Yashil iqtisodiyot uchun zarur mutaxassislar. Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi bilan yangi kasb va mutaxassisliklarga bo'lgan ehtiyoj ham kengaymoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha mutaxassislar 17,3 foiz bilan yetakchi o'rinni egallaydi. Shuningdek, chiqindilarni qayta ishlash va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha mutaxassislar ulushi 15,4 foizni, shaharsozlik va hududlarni rejalashtirish mutaxassislari 10,7 foizni, energiya samarador uy-joylar arxitektori esa 9,4 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari, organik qishloq xo'jaligi, elektromobil ishlab chiqarish va boshqa innovatsion yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj ham izchil ortib bormoqda.

Yashil iqtisodiyotning ustuvor sohalari. Strategik rivojlanish yo'nalishlari orasida chiqindilarni qayta ishlash sohasi 18,4 foiz bilan eng muhim yo'nalish sifatida e'tirof etilgan. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalari 17,6 foiz, yashil qurilish sohasi esa 16,9 foiz ulush bilan ustuvor yo'nalishlar qatoridan o'rin olgan. Ushbu natijalar mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda mazkur sohalarning strategik ahamiyati yuqori ekanini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyot tamoyillarining izchil rivojlanishi qurilish sanoati oldida yangi imkoniyatlar va ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirmoqda. Tarmoqda energiya samarador texnologiyalarni keng joriy etish, ekologik xavfsiz qurilish materiallaridan foydalanish hamda raqamlashtirilgan boshqaruv tizimlarini amaliyotga tatbiq etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda qurilish sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlari barqaror o'sish sur'atlarini



namoyon etayotgan bo'lsa-da, uni zamonaviy yashil standartlar asosida modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlanishini jadallashtirish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, yashil investitsiyalarni faol jalb qilish, ekologik talablarga mos qurilish amaliyotini kengaytirish, yuqori malakali mutaxassislar salohiyatini rivojlantirish hamda zamonaviy innovatsion va energiya samarador texnologiyalarni keng joriy etish qurilish sanoatining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, energiya tejankor qurilish materiallari ishlab chiqarishni kengaytirish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik xavfsizlik mezonlariga mos infratuzilmani shakllantirish tarmoqning raqobatbardoshligini yanada oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, yashil iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modeli sifatida iqtisodiy taraqqiyot va ekologik barqarorlik o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekotizimlarni asrash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish orqali barqaror rivojlanish uchun mustahkam asos yaratadi. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etish kelajak avlodlar uchun tabiiy resurslar salohiyatini saqlash, ekologik muvozanatni mustahkamlash va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot modelini bosqichma-bosqich rivojlantirish, xususan, suv resurslaridan samarali foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va yashil texnologiyalarni keng joriy etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun keng imkoniyatlar mavjud. Mazkur yondashuv milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, investitsiya jozibadorligini mustahkamlash va mamlakatning uzoq muddatli barqaror taraqqiyotini ta'minlashda muhim strategik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori <https://lex.uz/docs/-4539502>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-6600413>
3. Building and Construction Journal. (2023). Sustainable Construction Technologies. London: Building and Construction Publishing.
4. United Nations Environment Programme (UNEP). (2022). Green Economy Report. Nairobi: UNEP.
5. World Bank. (2021). Green Building and Energy Efficiency in Emerging Economies. Washington, DC: World Bank Publications.
6. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi. (2022–2024). Qurilish sohasining rivojlanishi bo'yicha yillik hisobotlar. Toshkent.
7. Vahobov, A. V., Xojibaqiyev, Sh. X., va boshqalar. (2020). Yashil iqtisodiyot. Toshkent: Universitet nashriyoti.
8. Asqarova, M. T. (2024). Yashil iqtisodiyot (2-nashr, qayta ishlangan va to'ldirilgan). Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi.
9. Hakimov, N. H., Ahmedov, O. M., & Abdumalikov, A. A. (2021). Yashil iqtisodiyot va ekologiya. Toshkent: Yodju texnika instituti nashriyoti.
9. Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti. (2023). Yashil iqtisodiyot fanidan elektron darslik. DGU № 30931. Andijon.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>